



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

ZAMONAVIY O‘ZBEK PUNKTUATSIYASIDA TARTIB VA XAOS

Bashorat BAXRIDDINOVA*

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek yozma nutqida tinish belgilaridan amaldagi me‘yorlarga bo‘ysunmagan, tartibsiz foydalanilish holatlari ko‘paygani, ushbu tartibsizlik punktuatsion qoidalarining takomillashuvi, punktuatsiya taraqqiyoti, yangi tartib, qoida, me‘yorlarning barqarorlashuviga zamin hozirlashi, bu esa tinish belgilari tadqiqiga yangi lingvistik paradigmalar, xususan, lingvosinergetika ko‘zgusida yondashish zaruratini yuzaga keltirayotgani xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: me‘yoriy punktuatsiya, tartibga solingan punktuatsiya, kodlangan punktuatsiya, klassik punktuatsiya, an‘anaviy punktuatsiya, xaos, tartib, lingvosinergetika, tartibga solinmagan punktuatsiya, punktuatsion arxaizm, beqaror punktuatsiya, noan‘anaviy punktuatsiya, kommunikativ maqsad.

Order and Chaos in Modern Uzbek Punctuation

Abstract

The article discusses the increasing number of cases of irregular use of punctuation marks in modern Uzbek written speech, the improvement of punctuation rules, the development of punctuation, the establishment of new procedures, rules, and norms, which creates the need to approach the study of punctuation marks from the perspective of new linguistic paradigms, in particular, linguosynergetic.

Keywords: normative punctuation, regulated punctuation, coded punctuation, classical punctuation, traditional punctuation, chaos, order, linguosynergetic, unregulated punctuation, punctuation archaism, unconventional punctuation, nonredundant punctuation, regulated punctuation, unstable punctuation, unconventional punctuation, communicative purpose

Bugungi kunda punktuatsiya nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki jahon tilshunosligining eng ko‘p o‘zgarishlarga duchor bo‘layotgan jiddiy sohalaridan biriga aylandi. Tilshunoslik kun tartibiga muntazam ravishda punktuatsiyaga doir yangi-yangi muammolarning chiqayotgani tinish belgilari tadqiqiga antropotsentrik paradigmanning pragmalingvistika, lingvosemiotika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya va boshqa yo‘nalishlari, shuningdek, lingvopoetika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, sinergetika, pedagogika, qiyosiy tilshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan yondashishga qaratilgan tadqiqotlarga zaruratni oshirmoqda.

* Filologiya fanlari doktori, professor. Qarshi davlat universiteti. baxriddinova74@mail.ru

Turli intralingvistik va ekstralingvistik omillarga ko'ra tinish belgilarining amaliyotda muayyan qoida, qoliplarga bo'ysunmay qo'llanayotgani klassik punktuatsiyaning hozirgi kungacha amalda bo'lib kelgan oltin me'yorlarining barqarorligiga shubha uyg'ota boshladi. Bir-biriga qarama-qarshi, ammo bir-birini taqozo etadigan mazkur voqelikni punktuatsiyada uzoq davrlar mobaynida shakllangan barqaror tartib-qoidalar va ularning favqulodda beqarorlashuvi, tartibsizlik (xaos) deb baholash mumkin. Unga ko'ra jahon punktuatsiyasida tinish belgilarining nutq sharoitiga mos qo'llanishi bilan bog'liq ikki yo'nalish:

a) me'yoriy – tartibga solingan (barqaror, kodlangan punktuatsiya, klassik, an'anaviy punktuatsiya, *regulated punctuation*, *регламентированная пунктуация*);

b) xaotik – tartibga solinmagan (beqaror, noan'anaviy *пунктуация*, *unconventional punctuation*, *nonredundant punctuation*, *нерегламентированная пунктуация*) punktuatsiya paydo bo'ldi.

Puntuatsiya taraqqiyotining bugungi bosqichiga kelib yozma nutq taraqqiyoti bilan bog'liq holda uning turli shakllari – badiiy ijod, publitsistika, ilmiy, rasmiy matnlar, ijtimoiy tarmoq matnlari, shaxsiy yozishmalar va boshqa o'rinlarda qo'llanayotgan tinish belgilarini qat'iy me'yorda ushlab turish, mavjud punktuatsion me'yorlar, **sof lingvistik qonuniyatlargagina tayanib ilmiy asoslashning imkoni bo'lmay qoldi**. Zamonaviy punktuatsion terminotizimda yangi-yangi tushunchalar, yangi-yangi terminlar paydo bo'ldiki, bu, o'z-o'zidan, o'zbek punktuatsiyasi oldiga ham yangi-yangi savollarni qo'ya boshladi. Aksariyat savollarning tug'ilishi zamonaviy punktuatsiyada tinish belgilarining qo'llanilishida struktur-sintaktik va intonatsion omillar susayib, mantiqiy-semantik va kommunikativ-pragmatik omillarning roli oshib borayotganiga borib taqaladi. Aniqrog'i, tinish belgilarining qo'llanilishida punktuatsiyaning barqaror klassik me'yorlariga asoslangan tizim – tartib va unga qarama-qarshi – nutqiy vaziyat, muloqot shakli, muallif uslubi, matn turi va boshqa shu kabi ekstralingvistik omillarga bog'liq ravishda yuzaga chiqqan tartibsizlik – xaos yuzaga keldi.

XX asrning oxirlaridan tilshunoslikda barcha til hodisalari kabi tinish belgilari tadqiqiga ham antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashish, yozma nutqning bir qismi bo'lgan tinish belgilarini tafakkur mahsulining nutqiy voqelikka ko'chirish, yuzaga chiqish shakli sifatida talqin qilish an'anasi yuzaga keldi. Modomiki, til bir yaxlit tizim ekan, tinish belgilari ham tabiiy ravishda ushbu paradigma a'zosi hisoblanadi. Chunki inson omilini hisobga olmay turib tinish belgilari tizimi haqiqiy muloqotda qanday ishlaydi degan savolga aniq javob berish mumkin emas. (Vlasov, 2008, 4-bet)

Puntuatsiya – tilning yozuv shaklini tartibga soluvchi, matnning mantiqiy, grammatik, intonatsion bo'laklarini ajratish hamda tushunishga yordam beradigan belgilar hamda ularni qo'llashga doir tarixan shakllangan, turli lingvistik va

ekstralingvistik omillar bilan uzviy bog‘liq holda muntazam taraqqiy etib, takomillashib boradigan qoidalar, me’yorlar tizimi. Punktuation tizim, odatda, uning mavjud tamoyillarining o‘zaro ichki munosabati va amalda qo‘llash bilan bog‘liq o‘ziga xosliklariga asoslanadi.

Me’yoriy punktuatsiya deganda ayni paytda dunyoning aksariyat tillari, jumladan, o‘zbek tili uchun ham umumiy bo‘lgan, shuningdek, zamonaviy kompyuter tili (internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar)ning lingvistik ta’minoti asoslangan, muayyan qoidalar bilan tartibga solingan punktuation tizim hamda uning ichki qonuniyatlari nazarda tutiladi. Me’yoriy punktuatsiya tinish belgilari taraqqiyotining ilk bosqichlarida shakllangan hamda aksariyat yozuvlar uchun hanuz amal qilib kelayotgan barqaror, turg‘un bo‘lib qolgan umumiy qoida-qonuniyatlarni tan oladi va ularga tayanadi.

Beqaror – tartibga solinmagan punktuatsiya zamonaviy punktuatsiyaning eng dolzarb muammolaridan bo‘lib, turli milliy tillarning xususiy evolyutsiyasi – milliy ong, tafakkur taraqqiyoti, va boshqa bir qancha sabablarga ko‘ra ulardan foydalanishda mavjud qolip, qoidalardan chiqib ketish, okkozional qo‘llanishlar, yangi-yangi uzuslar o‘laroq kun tartibiga ko‘tarildi.

Ma’lumki, olam doimiy o‘zgarishda bo‘lib, uning in’ikosi bo‘lgan til ham tashqi muhit ta’siri natijasida muntazam o‘zgarib, takomillashib boradi. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi va, o‘z navbatida, sifat o‘zgarishlariga sabab bo‘ladi. Ya’ni tildagi bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, uning muayyan davr uchun xos bo‘lgan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, jumladan, punktuation me’yorlariga ham ta’sir etadi. Tinish belgilari ana shu doimo o‘zgarib, rivojlanib boruvchi tilga xizmat qilgani uchun u ham tarixiy nuqtayi nazardan o‘zgaruvchandir. Shu bois har bir davrda turli omillarga bog‘liq holda tinish belgilarining vazifasi, qo‘llanishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar bo‘lishi – ayrim tinish belgilari o‘z funksiyasini boshqa belgilarga bo‘shatib berishi, tizimda ortiqcha bo‘lib qolishi, ayrim belgilarni qo‘llashga zarurat kamayishi yoki ayrim tinish belgilari funksional jihatdan taraqqiy etishi mumkin. Bu punktuatsiyada ma’lum darajada barqaror bo‘lgan umumiy klassik me’yorlar bilan birga muayyan tartiblarga bo‘ysunmagan, u yoki bu turdagi matnning funksional sifatlari, nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra shakllangan an’analar, uzuslarni yuzaga keltiradi. Me’yorlarning vaqti-vaqti bilan isloh etilmasligi, punktuatsiyada tartibsizlik – kaosni keltirib chiqaradi. O‘z navbatida ana shu tartibsizlik navbatdagi bosqich uchun tartibni belgilashga asos bo‘ladi.

Umuman olganda, kaos va tartib, bu – qarama-qarshi, ammo ajralmas voqelik holatlarini tavsiflovchi ikkita o‘zaro bog‘liq tushuncha. Xaos oldindan aytib bo‘lmaydigan, tasodifiy va tizimsiz birlamchi holat, tartib esa barqaror, qoliplashgan, tizimlashgan voqelik. Tabiatda va jamiyatda bu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy munosabatda bo‘lib, tartibsizlikdan tartib paydo bo‘lishi yohud tartib kaosga xos

elementlarni o'zida jamlab, keyinchalik barqarorlik dinamik tizimlarni yaratishga zamin hozirlaydi. (Ovshinov, 2019, 157-bet)

Lingvistik sinergetika tilda o'z-o'zini tashkil etishning umumiy qonuniyatlarini, lisoniy tartib va tartibsizlik munosabatdorligini, tilning tadrijiy taraqqiyotidagi tipologik o'zgarishlar, yangilanishlar, boshqa sifat bosqichiga o'tish jarayonlarini bifurkatsiya (rivojlanishning ikkiga ayrilishi), polifurkatsiya (rivojlanishning bir necha yo'nalishga tarmoqlanishi), attraksiya (magnit qutblari kabi o'zigatortuvchi rivojlanishning barqaror holati), fluktuatsiya (barqaror qonuniyatdan og'ish, chetlashish holati) tamoyillari asosida talqin etishga yo'naltirilgan paradigmadir. (Nurmonov, Raximov, 2013, 15-bet)

An'anaviy klassik punktuatsiyadan farqlanib, XXI asr punktuatsiyasi tilning sintaktik tuzilishi va uning funksional uslublarigagina tayanib ish ko'rmaydi. Shu bilan birga tinish belgilarining joriy qoidalarga zid, noodatiy qo'llanishini faqatgina muallif xohishi, uslubi bilan bog'liq ham deb bo'lmaydi. U ko'proq nutq vaziyati, funksional jihatdan turlicha bo'lgan matnlarning umumiy stilistik xususiyatlarini qamrab olish zarurati bilan aloqador. Aniqrog'i zamonaviy punktuatsiyada tinish belgilarining ishlatilishi nutq vaziyati, matnning tabiati bilan bog'liq holda tartibga solinadi. Masalan, jiddiy uslublar – ilmiy yoki rasmiy uslubda funksional jihatdan emotsiya, his-tuyg'ularni ifodalashga xoslangan undov, ko'p nuqtalarni kam uchratamiz. Raqamli muloqot shakllarida esa tinish belgilarining takror, ya'ni birdan ortiq (?????????, !!!!!!!!!!!!!,),),),),), ((, (((,)) qo'llanishi, turli kombinatsiyalarda kelishi (????!!!!!!!!, ...)), ((..., (:-\", :-), :-(, :-[, :-0, :-*, :-), ☺..., :), ☹...) ko'proq kuzatiladi.

N.N.Orexova punktuatsiyada yangicha an'analarning yuzaga kelishiga turli omillar, avvalo, inson omili, shuningdek, yozuvchi va korrektorlarning bilim darajasi, ijod maktabi an'analari, tipografiyalar, nashriyotlarning nufuzi va boshqalar sabab bo'lganini ta'kidlagan edi. (Opexova, 2001) Punktuatsiyaning umumiy me'yorlari kabi uning odatga kirgan yangi an'alarining ham shakllanishida inson omili – yozuvchi va noshirlar, ziyolilarning roli katta. Jumladan, o'tgan asr boshlarida ijod qilgan millatimiz ziyolilari – shoirlar, yozuvchilar, olimlar, jurnalistlar – mavjud umumiy punktuatsion me'yorlarga tayanib o'zbek punktuatsiyasi nazariyasini shakllantirishga sababchi bo'ldilar. Joriy punktuatsiya qoidalarini ishlab chiqishda ularning asarlari asos bo'lib xizmat qildi. Biroq davrlar o'tishi, jamiyat, ilm-fanning taraqqiy etishi bilan bog'liq mavjud qoida-qonuniyatlar tilning milliy tabiatidan kelib chiqib o'zgarib, takomillashib boraveradi. “Tinish belgilarini qo'llashning joriy me'yorlari ishlab chiqilgan, belgilab bo'lingandan so'ng ham yozuvchilar ularni o'z asarlarida muayyan yangicha ko'rinishda qo'llashda davom etaveradilar. Ya'ni yozuvchilar biror tinish belgisidan o'z asarida individual foydalanishi, bu esa boshqa

ijodkorlar uchun ham andaza vazifasini o'tashi, bora-bora odatga aylanishi kuzatiladi" (Baxriddinova, 2015, 35).

Yangi punktuatsion me'yorlarning shakllanishi tilshunoslikda uzus va noodatiy qo'llanishlarning ilmiy muomalaga kiritilishi bilan bog'liq. Tadqiqotchi D.To'rayevaning fikricha, "Hozirga qadar tilshunoslikda me'yor va uzus chegarasi masalasida munozaralar davom etmoqda. Ayrim tilshunoslar tilda tasdiqlangan qoida, qonuniyatlar emas, ko'pchilik tomonidan to'g'ri deb qabul qilingan, odatga aylangan holatlarga ustunlik bersa, ayrimlar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va joriy etilgan qoidalarni ustun deb biladi. Masalan, XIX asr oxirlarida ingliz tilshunosi R.Trench "...tilda tilshunoslar ma'qul deb topgan shakllar emas, amalda ishlayotgan shakllar to'g'ri" degan fikrni, E.Gauerz va A.Markuordtlar "til iste'molchilari tomonidan qo'llangan hamda til jamiyati tomonidan to'g'ri deb qabul qilingan til shakllari me'yorni belgillaydi" degan fikrni ilgari sursa, G.Xartung va R.Pulli qarashlarida "nima mutaxassislar tomonidan belgilab berilgan, tasdiqlagan, tavsiya etilgan bo'lsa, o'sha to'g'ri" degan g'oya ustunlik qiladi. Ular "me'yor tilning o'zida bo'lmaydi, u tilshunos-mutaxassislar tomonidan yaratiladi, belgilab beriladi, deb hisoblaydilar. D.Krepp me'yor borasida ikki jihatni ajratadi: me'yoriy qo'llanish – adabiy til me'yori sifatida tasdiqlangan; yaxshi qo'llanish – til iste'molchilari, yozuvchi, jurnalist, ziyolilar tomonidan ma'qul deb topilgan" (To'rayeva, 1967, 340)

A.Mamatov esa me'yor taraqqiyoti evolyutsion, tadrijiy jarayon ekani va bunda uzus muhim bosqich ekanini ta'kidlaydi. "Til har doim o'zgarib turish xususiyatiga ega, bu o'zgarishlar esa tilning rivojlanishidan, taraqqiyotidan dalolat beradi, bu fikrdan kelib chiqilsa, tilda bir tushunchani ifodalash uchun bir necha shakllar mavjud bo'lishi qonuniyligi e'tirof etiladi va bu til formalarining qaysi biri ko'p qo'llanilsa, ana shunisi norma deb tan olinadi. Qaysi til elementi ko'p yoki kam qo'llanilganligi haqida shubha tug'ilganda, normativlik mezoni stilistika yo'li bilan isbot qilinadi". (Mamatov, 1991, 18-bet)

Kommunikativ maqsad asosida, eng muhimi, o'quvchining nutq vaziyatidan kelib chiqib yozuvchi tomonidan ilgari surilgan maqsadini to'g'ri anglashi, matnni tushunishi yotadi. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy punktuatsiyada me'yor masalasida ikki jihat ahamiyatli:

me'yoriy qo'llanish – tinish belgilarining tasdiqlangan adabiy til me'yori doirasida qo'llash;

tartibsiz, noodatiy qo'llanish – til iste'molchilari, yozuvchi, jurnalist, ziyolilar tomonidan ayni paytda ma'qul deb topilgan, kelajakda joriy me'yorlarni takomillashtirish uchun xizmat qiladigan istiqbolli yondashuvlar.

Biroq unutmash kerakki, **tinish belgilari tadqiqiga yondashuvlar har qancha taraqqiy etmasin, tilning me'yorlashtirilgan punktuatsiyasi va uning nazariy asoslari barcha davrlarda yetakchi bo'lib qolaveradi.** Aniqrog'i, deyarli barcha tilshunosliklarda tinish belgilarining o'rni va qo'llanish prinsiplarini

belgilashda hanuz mavjud uch asosiy tamoyil – *mantiqiy, sintaktik, intonatsion prinsiplar* ustuvorligicha qolmoqda. XX asrning oxirlariga kelib mazkur tamoyillar qatoriga yozma nutqda tinish belgilari orqali axborot uchun muhim zaruriy bo‘laklarni – kommunikativ maqsadni oydinlashtirish funksiyasiga diqqat qaratila boshladi. Muayyan tinish belgisining yakka, takror, qo‘sha yoki turli kombinatsiyalarda ishlatilishi, yoki umuman qo‘llanmasligi uzatilayotgan axborot mazmuni va nutqning emotsional-ekspressivligini ta‘minlash bilan bog‘liq quyidagi bir necha omillarga ko‘ra yuz beradi:

- kommunikativ maqsad (ifoda maqsadi);
- nutq sharoiti (an‘anaviy yoki virtual muloqot; she‘riy matn yoki nasriy matn);
- nutq vaziyati (matn muallifining individual uslubi);
- mantiqiy-semantik vazifa (asosan, ilmiy, rasmiy matnlarda);
- ohang, ta‘kid (rasmiy, qisman publitsistik va badiiy uslubda);
- emotsional-ekspressiv ta‘sir (badiiy matnlar, publitsistik uslubda) va hk.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, me‘yoriy punktuatsiya umumiy tabiati bilan hammaning matnni birdek tushunishni osonlashtirsa, tartibga bo‘ysunmaydigan punktuatsiya individualligi, nutqiy vaziyatga xoslangani bilan matn mazmunini to‘g‘ri anglash va to‘liq tushunishga xizmat qiladi. Zamonaviy o‘zbek yozuvida punktuatsiya nazariyasi va amaliyoti o‘rtasida ixtiyordan tashqari, kutilmagan vaziyatlar bilan bog‘liq bunday favqulodda holat yana ko‘plab savollarning tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu savollarga jahon punktuatsiyasining innovatsion tendensiyalari, qolaversa, zamonaviy o‘zbek yozuvida kuzatilayotgan punktuatsion uzus, an‘ana, odatlar, umuman, tinish belgilari tadqiqiga yangicha yondashularni taqozo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Turayeva D. (2023). *Umumiy va xususiy punktuatsion me‘yorlar hamda ularning mantiqiy-grammatik asoslari (ingliz, rus, o‘zbek tili materiallari misolida)*: Filol. Fan. Bo‘yicha fals. Dok. ...diss.avtoref. Qarshi.

Бахриддинова Б.М. (2015) *Замонавий ўзбек пунктуацияси асослари*. Монография. Тошкент: Академнашр.

Власов М.С. (2008). *Теоретико-экспериментальное исследование процессов порождения и восприятия “естественной” пунктуации (на материале русского и английского языков)*: дисс. ... канд. Филол. Наук. Кемерово. <http://www.dslib.net/>

Маматов А. (1991). *Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари*. Тошкент: Фан.

Нурмонов А., Рахимов А. (2013). *Лингвосинергетикага кириш*. Тошкент: Академнашр.

Овшинов А.Н. (2019). *Хаос и порядок – модусы социальной диффузии как процесса (коммуникативный подход)*. // Вестник Калмыцкого университета.

Орехова Н. Н. (2001). *Пунктуационная система языка: формирование, динамика развития (на материале русского и английского языков)*: Автореф. Дис. ... д-ра филол. Наук. Воронеж.